

DEVIANT XULQLI O'SMIRLAR SHAXSIY RIVOJLANISHI VA XULQ-ATVORINING**PSIXOLOGIK KORREKSIYASI****Xudoyqulova Gulshoda Baxronovna**

P.f.f.d.(PhD), dotsent.

Rahmatullayeva Shirin Xayrulla qizi

AIFU psixologiya yo'nalishi magistri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14562633>

O'smirlik davrida deviant xulq ko'rinishlari psixologik diagnostikasi va korreksiyasi mavzusi nazariy va amaliy jihatdan dolzarb bo'lgan muammolar sirasiga kiradi. O'smirlar deviant xulq ko'rinishlari muammosi bo'yicha psixologik adabiyotlar tahlili asosida o'smirlik davrida turli ekstremal vaziyatlarga nisbatan o'ta sezgirligini qayd etganda ushbu vaziyatlarga nisbatan noadekvat reaksiyani turli ijtimoiy munosabatlar jarayonida yuzga kelishi kuzatilgin. Ushbu munosabatlar pozitiv xarakterda: badiiy texnik, ilmiy ijodiy va hokazo. Negativ, ichkilik, narkomaniya, däydilik o'z joniga qasd qilish kabi salbiy xulq ko'rinishlarini namoyon bo'lishiga olib keladi. O'smirlar tomonidan axborotlarni idrok etishda ularning tengdoshlari, videofilmlar, reklama roliklari va boshqa axborot kanallari orqali olingan turli toifadagi axborotlarga nisbatan o'z vaqtida psixologik profilaktika tadbirlarini o'tkazilmaganligi ularda deviant xulq ko'rinishlarini shakllanishiga olib keladi.

Psixologik korreksiya – bu keng ma'noda amaliy psixologlikning shunday shakli va usuldagi faoliyatki, bu faoliyat insonni psixologik, aqliy va shaxsiy rivojlantirishdagi zaifliklarni tuzatishlarga qaratilgan bo'ladi. Psixologik korreksiyaning maqsadi: shaxs psixik ko'rsatkichlarini me'yorga keltirish, insonga jamiyat talablari asosida psixik buzilishlarning asoratli darajaga yetmasdan turib faoliyat ko'rsatish uchun maqbul (optimal) sharoitlarni yaratishdir. O'smirlar bilan o'tkaziladigan pedagogik-psixologik korreksiya, avvalo, oilada o'smir shaxsi rivojlanishi uchun maqbul bo'lgan psixolgik muhitning shakllanishiga erishish, unda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'zaro hamkorlik hamda hurmatga asoslangan jamoani jipslashtirish, o'smirlarda o'z-o'zini namoyon etish imkoniyatlarini topa olishiga imkoniyat yaratish, ularning qiziqishlari va htiyojlarini inobatga olgan holda ijtimoiy foydali faoliyat yo'nalishlariga jalb etish, o'z oldiga qo'ygan maqsad, shuningdek, istiqbolli rejalarini amalga oshirish motivatsiyasini shakllantirish kabi vazifalarni qamrab oladi. O'smirlik davriga xos psixologik diagnostika va korreksiya quyidagilar bilan tafsiflanadi:

- psixologik yordamni orqaga surishning mumkin emasligi;
- deviant xulq-atvorning shakllanishiga olib keluvchi-psixologik ustanovkalarni aniqlash va korreksiyalashga yo'nalganligi;

-ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik darajasini ta'minlovchi, shuningdek, individ barqarorligi va shaxsiy yuksalishiga xizmat qiluvchi, turli ko'rinishdagi shaxslararo nizolarni hal etishning yangicha usullarini izlab topish va treningni amalga oshirishdan iborat.

Psixologik diagnostika va psixokorreksiya odatda uchta asosiy vazifani bajaradi:

- psixologik qo'llab-quvvatlash;
- psixologik aralashuv;
- ijtimoiy-psixologik moslashuv darajasini oshirish.

Psixologik diagnostika va korreksiyaning bir necha bosqichlari mavjud. Bular:

- psixologik aloqa o'rnatish;
- deviant xavf bo'lgan hissiyotni ochib berish;
- xulq-atvor muammolarini yechish va adaptiv ko'nikmalarini safarbar etish;
- xohishga ko'ra, shartnoma tuzish.

Psixologik korreksiyasining maxsus ma'nosi, psixolog «nimani tuzatmoqchi» bo'lishiga bog'liqdir. Deviant xulq-atvorli o'smirlar bilan ishslashning umumiyligi tamoyillarini quyidagilar tashkil etadi:

- birinchi lahzadan empatik, intensiv-emotsional xayrixohlik tusi, o'smirga nisbatan norasmiy munosabatni o'rnatish;
- o'smirning xohish- istaklari, tashvishlari va qo'rquvlardan xalos bo'lishiga imkon berish;
- imkoniyatlarini faollashtirish;
- anonimlilik talabiga rioya etish.

O'smirlar bilan amalga oshiriladigan birinchi suhbat jarayonining asosiy vazifalarini quyidagilar tashkil etadi. Bular:

- emotsiyonal tanglikni kamaytirish;
 - salbiy hissiyotlarini - to'sib qo'yish;
 - o'smirni qiyin vaziyatlarni yengib o'tishga safarbar qilish;
 - ushbu inqiroz jarayonidagi psixologik shikastlanish (jarohat) holatlari ehtimoli va ularga adekvat javob qaytarishga tayyorlanish;
- o'smirning e'tiborini muammolli vaziyatdan o'zining ichki muammolariga qaratgan holda uning navbatdagi psixologik yordamini qabul qilishning motivatsiyasini kuchaytirish.

Bu jarayondagi qiyinchilik shundaki, nisbatan qisqa muddatli psixologik diagnostika va korreksiya jarayonida o'smirning yuksak motivatsiyaga ega bo'lishida yaqqol ko'rindi.

Deviant xulq-atvorli o'smirlarda, ko'pincha emotsiyonal aloqa qilishning imkoni pasaygan, motivatsiya umuman namoyon bo'lishga ulgurmagan bo'ladi. Shuning uchun ham, o'smir bilan birinchi uchrashuv va suhbat har ikki tomon, ya'ni o'smir - psixolog diadik munosabatining qiymatini belgilaydi.

O'smir shakllangan inqirozli vaziyatdan chiqib ketishni xoxlaydi, lekin taklif etilgan yordamni qabul qilishni istamaydi. Shu bois ham, ular bilan o'zaro maqbul aloqalarni tiklash va hamkorlik, shuningdek, vaziyat tahlilini aniqlashga qaratilgan suhbatning psixologik tavsifi haqida so'z yuritmoq joizdir. O'smir xulq-atvorini tadqiq etishga doir suhbatlar muayyan tamoyillar asosida tuzilishi kerak. Shuni ta'kidlash lozimki, o'smirlar bilan o'tkaziladigan birinchi suhbat davomida qo'llanilgan psixologik usullarning barcha yo'nalishlari unda keyingi o'zgarishlar motivatsiyasini yaratishga qaratilmog'i lozim. Psixologik korreksiya, psixologik konsultatsiya (maslahat berish) bilan uzbek bog'liq, u psixologiyaning mustaqil bo'limidir. Aynan, yakka tartibdagi psixologik maslahatlar turli hayotiy, shaxsiy va boshqa shu turdagি muammolari bor insonlarga yordam beradi. Maxsus tashkil etilgan muloqot-suhbat davomida psixolog yordamida shaxs o'zidagi bor kuchlarni safarbar qila olishi mumkin. Aynan, shu qo'shimcha psixologik kuch-quvvat va qobiliyat, insonning qiyin muammoli holatlardan chiqishga yordam beradi.

Maslahat berish usullarini quyidagicha tuzish mumkin:

1. Hayotiy ko'nikmalar, treninglar;
2. Insonlarning o'zaro aloqalarining treningi;
3. Muammoni hal qilish va muhim qaror qabul qilish treningi;
4. Qobiliyatlarni yo'naltirish va rivojlantirish;
5. O'zining rivojlantirishga, o'z ustida ishlashga yordam.
6. Ijtimoiy moslashuvchanlik darajasini yuksalatirish;

Bu usuldagи treninglardan guruh ichidagi va oilaviy ruhshunoslikda, psixologik terapiyada foydalilaniladi, shu usullar vositasida muammoli vaziyatga shaxsning boshqalar bilan kelisha olmaslik xususiyatlarini to'g'rilash kiritiladi (psixokorreksiya). Psixologik korreksiya va rivojlanish kamchiliklarni tuzatish va shaxsning shakllanishi jarayonida yuz bergen me'yordan chiqishlarni hal qilish, shaxsning sog'lom psixologik rivojlantirishga sharoit yaratish.

Deviant xulqli o'smirlar va o'smir huquqbazarlar bilan yakka tartibdagi korreksiya ishlarini quyidagi uslublarda olib borish tavsiya etiladi:

1. «Psixoterapevtik oyna» vositasi—o'zini tasharidan ko'rishga imkoniyat yaratib, shartli ravishda o'zini tushunishni rivojlantirish;
2. «Muqobil yo'llar» vositasi—noto'g'ri axloq-odob me'yorlarini namoyon qilgan o'smirliga to'g'ri yo'l ko'rsatish;
3. «O'rniga-o'rin» vositasi—xarakterida, fe'l-atvordinagi bo'shanglik, iroda va kuchli psixologik quvvat kabilar bilan o'rniga- o'rin almashtirish, to'ldirish taklif kilinadi;
4. Ijobiy ijtimoiy faoliyatni singdirish! vositasi—psixologning salbiy dunyoqarashini o'zgartirib, ijobiy fikrlashga ta'sir qilishi;

5. «Ma’naviy immunitet hosil qilish» usuli–namunaviy, ideal axloq-me’yorlariga ega bo‘lishni maktabdan, hayotdagi misollardan keltirish, ba’zi insonlarning salbiy ta’siriga qarshi immunitet hosil qilish;

6. «Ko‘rsatmalar, qoidalar» usuli–oilaviy psixologik terapiya vositasida oila a’zolarining qilishi kerak bo‘lgan ishlari qonun-qoidasini belgilaydi. Ko‘rsatmalar turlicha bo‘lishi mumkin: nimadir qilish, nimanidir qilmaslik. Bu qonun-qoidalar to‘g‘ri va qarama-qarshi ko‘rinishdagi qonun-qoidalar;

7. «Ishontira olish» vositasi – ta’sir o‘tkazish sifatida harakatlanayotgan inson – psixolog yoki pedagogning boshqa ta’sir etuvchi insonning xulqiga, o‘ziga bo‘lgan munosabatiga, boshqalarga bo‘lgan munosabatiga, muammoni yaxshilikcha hal qilishga xizmat qiluvchi axborot vositasi;

8. «Ijtimoiy me’yorlarning to‘g‘rulanishi» vositasi–insonning shaxsiy shakllangan dunyoqarashlari, xususan, «o‘qishga, ishga», «o‘ziga» «boshqalarga» «kelishmovchiliklar»ga bo‘lgan qarashlarini to‘g‘rilash.

Quyidagi ishlar tavsiya etiladi:

1. Deviant xulqli o‘smirlarning xulqini o‘zgartirish murakkab, ular ijobiy o‘zgartirishlarga turlicha qarshilik bildirishadi. Shuning uchun, deviant xulqli o‘smirni qayta tarbiyalash uchun ularda ijobiy tomonga o‘zgartirishni xoxlash tuyg‘usini uyg‘otish juda muhim;

2. Ijobiy o‘zgarishlarni istash hissini uyg‘otish, uni rivojlantirish uchun psixologik maslahatlar, treninglar katta ahamiyatga ega.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri quyidagi savollar bilan o‘smirga murojaat qilish ham foydadan xoli emas: «Xulqingizning yomon xislatlari nimada?», «Yomon xulqingizdan o‘zingiz ham aziyat chekasizmi?», «Kimga qanday zarar etkazdingiz?», «O‘z xulqingizdagi qusurlardan o‘zingiz xalos bo‘la olasizmi?», «Xulqingizni o‘zgartirish kerakmi?». Shuningdek, deviant xulqning ayanchli oqibatlari haqida gapirish ham darkor. Deviant xulqli o‘smirni o‘z qilmishlarining yomon oqibatlari haqida iqror bo‘lishga undash ham profilaktik ishlarning bir qismidir. Agar bunga o‘smir rozi bo‘lmasa, deviant xulqning ayanchli oqibatlari ta’sirini atrofdagi odamlar misolida tahlil qilish mumkin. Maslahat berayotgan psixolog o‘z mijozini gunoh, uyat, alam, og‘riq, dard, nafrat, g‘azab, ojizlik, azoblanish tuyg‘ularda ochiq iqrор bo‘lishga o‘rgatadi.

3. O‘smirning kelajakni deviant xulq bilan va usiz qarshi olish holatlarini tasvirlashga chaqirish yaxshi natija beradigan psixologik vositadir. Masalan, psixolog mijozga uning kelajakdagi hayotini tasvirlashda spirtli ichimliklarni ayanchli oqibatlarini ko‘rish va faraz qilishga chorlashi kerak. Psixolog yoki psixoterapevt nafaqat fikrlashga, balki o‘z his-hayajonini ifoda kilib, olishga ham o‘rgatadi.

O‘z kelajagini tasvirlash uchun kerakli iboralarni topa bilish foyda beradi. Agarda, o‘smir o‘z deviant xulqisiz kelajagini tasvirlaganda, ijobjiy his-tuyg‘uni namoyon qilsa, demak, shunday xulqqa erishish chora-tadbirlari dasturini tuzish maqsadiga muvofiq bo‘ladi.

O‘zaro tushunishga erishilsa, kelishuv asosida psixoterapevtik muolajalarni olib borish o‘smirda butun muolaja davrida maqsadga intilib turishni ta’minlaydi. Kelishuv og‘zaki yoki yozma kontrakt usulida tuzilib, unda faoliyatning maqsadi, usuli, sharti, muddati, shuningdek o‘zaro manfaatli nuqtalari belgilanadi.

4. Mijozning muammosini ishlab chiqish asosiy ustuvor vazifadir. Mijoz maslahat beruvchi yordamida quyidagi savollarga javob berishga harakat qilishi kerak. «Uning yomon xulq-atvorni namoyish qilishdan maqsadi nima?», «Bundan qanday qoniqish hosil qiladi?», «Deviant xulqdan ozod bo‘lib, u nimani yo‘qotadi?». Bu savollarga javob berishga o‘smir qiyinalishi mumkin. Agar o‘smir ochiq muloqotga, ichidagi his-tuyg‘ularni namoyish qilishga qarshilik qilsa, o‘zini o‘rganishning boshqa usullardan foydalanish mumkin. Masalan, bu «men va giyohvandlik», «giyohvand moddalarsiz hayot» mavzudagi rasmlar bo‘lishi mumkin.

5. Agar shaxs qat’iy turib muammolarni inkor etib, yaxshi tomonga o‘zgarishni istamasa, faol bo‘lganlarga murojaat qilinadi. Uning oilasi va referent guruhi (unga ta’sir qiluvchi odamlar) bunda hamkor bo‘lishlari kerak. Ko‘pchilik bo‘lib, unga ta’sir qilish o‘z samarasini beradi. Buning uchun deviant xulqli o‘smirga qadrli bo‘lgan insonlar yig‘iladi. Yig‘ilganlar suhbatga alohida tayyorgarlik ko‘rishadi. Bunda turli me’yordan chekinihlarni yaqqol namoyon qiluvchi hayotiy misollar keltiriladi. Ularning fojiyaviy yakuni gapirib beriladi. O‘smir bilan ishlashdan avval unga ta’sir etuvchi guruh repetitsiya o‘tkazib oladi. Bu jarayonni shunday tashkillashtirish lozimki, barcha deviant xulqli o‘smirlar uchun obro‘ga ega guruh vakillari ta’sir kuchiga ega bo‘lgan gaplarni ishlatib, o‘smirning o‘zini tanqid qilmagan holda, qayta tarbiyalasinlar.

Keyinchalik o‘smirga tuzalish imkoniyatini beruvchi istalgan vositani tanlash imkoniyatini berish kerak.

6. Ba’zi hollarda, nechog‘liq og‘ir bo‘lsa ham o‘z holiga qo‘yish usuli ham natija berishi mumkin. Usulning ma’nosisi—o‘smirning xulqiga, xulq-atvor oqibatlariga o‘zini mas’ul va javobgar qilish. Shuningdek, o‘smirga ta’sir qilishning barcha usullarini to‘xtatib, uni qo‘llashdan umuman yuz o‘girish. Shu daqiqalardan boshlab, inson o‘zini-o‘zi eplay olishi kerak, yo‘qsa, achinarli bo‘lsa ham oilasi undan voz kechishi ham mumkin. Bu usuldagagi ishlarni olib borishda atrofdagilar o‘smirga qattiqqo‘llik bilan qarashlari darkor. Uning gaplariga ishonchsizlik bildirib, yordam bermay qo‘yishlari kerak. Agar u oila quchog‘ida yashab qolsa, uning talablarini faqat oila tarbiyachilariga bo‘ysunsagina bajarish kerak. Masalan, u giyohvand moddalarini iste’mol qilishini davom ettirsa, uni ma’lum muddatga pul va boshqa ehtiyojlarini qoniqtirishdan voz kechishlarini bildirishlari kerak.

Ota-onalgiy vand o'smirga hatto jazo tariqasida ovqat berishdan, boshpana berishdan voz kechishi mumkin. Ba'zi hollarda o'smir maxsus yordamga rozi bo'ladi. Deviant xulqli o'smirlar bilan ishlashda ularni tuzatish, to'g'rilash davomida o'smir xulqini kelib chiqishi sabablarini bilish kerak. Mutaxassis-psixolog o'z mijoziga kerakli bo'lgan usul va vositalarini taklif qiladiki, bu vositalar ijobjiy o'zgarishlarini olib kelsin. Albatta, o'smir bilan psixolog amkorlikda faoliyat olib borishi uchun oradagi munosabat halollikka, javobgarlikka, ma'suliyatlilikka, bir-birini qo'llab-quvvatlash, hurmat qilishga asoslangan bo'lishi lozim.

REFERENCES

1. Аварин В.А. Психология детей и подростков. СПб., 1998. С. 308-309
2. Abduvaxobova D. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. Ma'ruzalar to'plami. Jizzax Davlat Pedagogika Instituti. 2013. -145 b.
3. Shagazatova, B. K., & Alisherovna, K. N. (2023). Changes in the Incretin Levels After Gastric Bypass. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 4(2), 446-450.
4. Raximova K., Abdullaeva A.. Tarbiyasi qiyin o'smirlar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. 2007 y.
5. Komilova N.G'. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – T., 2008.
6. Hakimova I.M. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. O'quv qo'llanma,- T.,2014.-145
7. Xudoyqulova G.B. Deviant xulq atvor psixologiyasi. Darslik.T.,2023.-B. 595.
8. Shagazatova, B. X., Artikova, D. M., Ahmedova, F. S., Mitxaydarova, F. S., & Ahmedova Sh, A. (2023). ENDOKRINOLOGIYA MUTAXASSISLIGI BO'YICHA KLINIK REZIDENTLARNI O'QITISHDA «CASE»-USULI (Doctoral dissertation, Ўзбекистон, Тошкент).